

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR VAQTINI MAZMUNLI TASHKIL QILISHDA KUN TARTIBINING AHAMIYATI

Otayeva Salamat Sabirovna

*RANCH texnologiya universiteti, Pedagogika va aniq fanlar kafedrası dotsent v.b.,
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)Gmail: sotayeva6@gmail.com*

Axmedova Shohista Alisher qizi

RANCH texnologiya universiteti Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 1-bosqich talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida kun tartibini tashkil etish masalalari O'zbekiston Respublikasining "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi Qonuni, "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi va Davlat talablari asosida tahlil qilinib, ilg'or amaliy tajribalar umumlashtirilgan. Shuningdek, maqolada kun tartibini tuzishda bolalarning yosh xususiyatlari, fiziologik ehtiyojlari, kun davomidagi aqliy va jismoniy faolligi, dam olish va ovqatlanish vaqti, sayr, o'yin, ta'limiy faoliyat hamda mustaqil faoliyatning o'zaro mutanosibligini ta'minlash muhim omil sifatida ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim tashkiloti, kun tartibi, me'yoriy-huquqiy hujjatlar, yosh davrlari, individual xususiyatlar, ta'limiy faoliyat, o'yin faoliyati, pedagog, tarbiyalanuvchi

Аннотация: В данной статье вопросы организации режима дня в дошкольных образовательных организациях анализируются на основе Закона Республики Узбекистан «О дошкольном образовании и воспитании», Государственной учебной программы «Илк кадам» и Государственных требований, а также обобщается передовой практический опыт. Кроме того, в статье рассматривается, что при составлении режима дня важным фактором является обеспечение сбалансированного соотношения возрастных особенностей детей, их физиологических потребностей, умственной и физической активности в течение дня, времени отдыха и приёма пищи, прогулок, игровой, образовательной и самостоятельной деятельности.

Ключевые слова: дошкольная образовательная организация, режим дня, нормативно-правовые документы, возрастные периоды, индивидуальные особенности, образовательная деятельность, игровая деятельность, педагог, воспитанник.

Abstract: This article analyzes the organization of the daily routine in preschool education organizations based on the Law of the Republic of Uzbekistan "On Preschool Education and Upbringing", the State Curriculum "Ilk Qadam", and the State Requirements, and summarizes advanced practical experience. Furthermore, the article considers that in designing the daily routine, an important factor is ensuring a balanced correlation of children's age characteristics, physiological needs, daily mental and physical activity, rest and meal times, as well as walks, play activities, educational activities, and independent activities.

Keywords: *preschool education organization, daily routine, regulatory and legal documents, age periods, individual characteristics, educational activity, play activity, teacher, learner.*

Bugungi kunda yosh avlodni har tomonlama barkamol etib tarbiyalash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Bu borada bolalarning sog'lom, bilimli, odobli va faol bo'lib voyaga yetishi uchun maktabgacha ta'lim tizimiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Respublikamiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev o'zining kitobida "Farzandlarimizning barkamol bo'lib ulg'ayishi uchun barcha sharoitlarni yaratish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishidir"³² - deb ta'kidlagan. [1, 44-b] Bolalarning vaqtini to'g'ri va mazmunli tashkil etish muhim pedagogik vazifa sanaladi. Ayniqsa, kun tartibini ilmiy asosda ishlab chiqish bolalarning jismoniy, aqliy va ijtimoiy rivojlanishida katta ahamiyatga ega.

Xususan, O'zbekiston Respublikasining "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida" gi Qonuni, Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning Davlat standarti, "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi, hamda Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablariga muvofiq kun tartibi ilmiy metodik jihatdan ishlab chiqiladi.

O'zbekiston Respublikasining "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida" gi Qonunining 5-bobi maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish deb nomlanib, uning 31-moddasida maktabgacha ta'lim tashkilotlarining ish rejimi keltirilgan. Unga muvofiq maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi guruhlar ularda bolalarning bo'lishi davomiyligiga qarab quyidagicha tartiblanadi:

- bolalar qisqa vaqt bo'ladigan guruhlar (kuniga 3-4 soat);
- to'liq kunli guruhlar (kuniga 9, 10,5 va 12 soat);
- bolalar kechayu kunduz bo'ladigan guruhlar bo'lishi mumkin.[2]

Bolalarning maktabgacha ta'lim tashkilotida bo'lish vaqti kun davomida olib boradigan faoliyatini to'g'ri, izchil va muvozanatli tashkil etishni talab qiladi. Bolalarning sog'lig'ini mustahkamlash, har tomonlama rivojlanishini ta'minlash hamda ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini oshirish alohida ahamiyat kasb etadi.

Kun tartibi — maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarning kun davomida amalga oshiradigan o'yin, ta'limiy mashg'ulot, sayr, ovqatlanish, dam olish va mustaqil faoliyat kabi barcha faoliyat turlarining yosh va fiziologik xususiyatlarga mos ravishda aniq ketma-ketlik hamda vaqt me'yorlari asosida ilmiy-pedagogik jihatdan rejalashtirilgan tizimidir. Kun tartibi bolalarning uyg'onishidan boshlab, ovqatlanish, o'yin, mashg'ulot, sayr, dam olish va uyqu jarayonlarinigacha bo'lgan vaqtni o'z ichiga oladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida kun tartibi faqat vaqtni taqsimlash vositasi emas, balki bolaning har tomonlama rivojlanishini ta'minlovchi pedagogik tizim sifatida qaraladi. "Ilk qadam" davlat o'quv dasturining 2-ilovasida keltirilgan namunaviy kun tartibi asosida bolalarning jismoniy, ijtimoiy-hissiy, nutqiy, bilish hamda ijodiy rivojlanish sohalari izchil va uzviy ravishda rivojlantiriladi.

³² Sh.M. Mirziyoyev "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi" - Toshkent, "O'zbekiston" 2022. 44-bet

Maktabgacha yoshdagi bolalarning to'g'ri tuzilgan kun tartibi quyidagi talablar asosida ishlab chiqilishi maqsadga muvofiq:

-bolalarning yosh xususiyatlarini hisobga olish ularning jismoniy va psixologik imkoniyatlari, charchash darajasi hisobga olinishi kerak. Yoshga mos bo'lmagan yuklama berish taqiqlanadi;

-sog'liqni saqlash talablariga mos bo'lishda ovqatlanish vaqti aniq belgilanishi, uyqu va dam olish yetarli bo'lishi, xona shamollatilishi, toza havo va sayr uchun vaqt ajratilishi, shaxsiy gigiyena ko'nikmalarini shakllantirish;

-ta'lim va tarbiya vazifalarini bajarishda o'yin faoliyati, ta'limiy mashg'ulotlar, ochiq havoda sayr, mustaqil faoliyat, kunduzgi uyqu, ovqatlanish, gigiyenik jarayonlar, jismoniy mashqlar faoliyatlar almashib turishi kerak;

-harakatli o'yinlarga vaqt ajratishda mustaqil o'yin, ijodiy faoliyat, tengdoshlari bilan muloqot qilishi uchun yetarli vaqtga ega bo'lishi kerak.

Psixolog olimlar R. M. Belikova va N. K. Gainanovalar fikriga ko'ra, kun tartibini tashkil etishda quyidagi qoidalarga amal qilish zarur:

1. bolalarning barcha biologik ehtiyojlarini (uyqu, ovqatlanish) to'liq va o'z vaqtida qondirish;

2. gigiyenik parvarishning to'liq bajarilishi, tana, kiyim va to'shak tozaligiga qo'yilgan talablarning bajarilishi;

3. bolalarni rejim jarayonlarida faol ishtirok etishga jalb qilish, mustaqil faoliyat va faollikni rag'batlantirish;

4. madaniy-gigiyenik ko'nikmalarni kengaytirish;

5. rejim jarayonlari davomida hissiy muloqotni ta'minlash;

6. bolalarning ehtiyojlari va individual imkoniyatlarini hisobga olish;

7. murojaatda sokin va mehribon ohangdan foydalanish, bolaga ehtiyotkorlik bilan yondashish, uzoq kutishni istisno qilish, chunki bolalarning ishtahasi va uyqusi bevosita markaziy asab tizimi (MAT) holatiga bog'liq." [3.] Kun tartibini to'g'ri tashkil etish bolalarning sog'lom rivojlanishi uchun muhim omil bo'lib, u organizmning biologik ehtiyojlarini o'z vaqtida qondirish, gigiyena talablariga rioya qilish hamda har bir bolaning individual xususiyatlari va hissiy holatini hisobga olishni taqozo etadi.

Pedagog hafta mavzusiga ko'ra ta'lim va tarbiya jarayoni shakli (katta, kichik guruhda, individual va rivojlanish markazlarida) ni belgilaydi. Bolalarning MTTda bo'lish vaqtiga qarab hamda O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tashkilotlarining ish mazmuni, joylashuvi va ish tartibini tashkil etishga qo'yiladigan sanitariya-gigiyena talablariga muvofiq o'zining kunlik ish tartibini ishlab chiqishi mumkin.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun namunaviy kun tartibining tuzilmasi:

- 7:30–8:20 - Bolalarni qabul qilish, erkin o'yin faoliyati, ertalabki badantarbiya.
- 8:20–8:45 - Nonushtaga tayyorgarlik, nonushta.
- 8:45–9:00 - Ertalabki davra suhbat.
- 9:00–9:40 - Ta'lim va tarbiya jarayoni.

- 9:40–10:30 - Hafta mavzusi bo'yicha rivojlanish markazlarida bolalar tanloviga ko'ra o'yin asosidagi ta'lim va tarbiya jarayoni.
- 10:30–11:30 - Birinchi sayr (kuzatish, mehnat faoliyati, harakatli o'yinlar, mustaqil va individual faoliyat).
- 11:30–12:00- Sayrdan qaytish (kiyim almashtirish, gigiyenik tadbirlar, individual faoliyat, zarurat bo'lganda logoped/defektolog, psixolog, musiqa rahbari bilan ishlash).
- 12:00–12:30 -Tushlikka tayyorgarlik, tushlik.
- 12:30–13:00 -Guruh xonasida erkin o'yin faoliyati.
- 13:00–15:00- Uyquga tayyorgarlik, kunduzgi uyqu (uyqusiz guruhlarda: erkin va tinch o'yinlar, individual ish, badiiy adabiyot o'qish)
- 15:00–15:10 - Tetiklashtiruvchi gimnastika, havo va suv muolajalari.
- 15:10–15:30 - Ikkinchi tushlikka tayyorgarlik, ikkinchi tushlik.
- 15:30–16:10 - Ta'lim va tarbiya jarayoni (katta va kichik guruhlarda)
- 16:10–16:50 - Erkin o'yin faoliyati.
- 16:10–16:50 -Ota-onalar iltimosiga binoan qo'shimcha ta'lim xizmatlari (to'garaklar) va bolalar bilan individual ishlash.
- 16:50–17:10- Kechki davra suhbat, kun refleksiyasi.
- 17:10–17:55 - Ikkinchi sayr, erkin o'yinlar.
- 17:30–18:00 -Ota-onalar bilan ishlash va bolalarning uyga ketishi.

Har bir MTT bolalarning tashkilotda bo'lish soatlari miqdoridan kelib chiqqan holda va sanitariya normalari, qoidalari va gigiyena normativlariga muvofiq ravishda o'z kun tartibini ishlab chiqishi mumkin. Bunda, o'yin-ta'lim faoliyati kunduzgi uyquni hisobga olgan holda kamida 15% ni, kunduzgi uyquni hisobga olmaganida kamida 38% ni, bolalarning ochiq havoda bo'lishi kamida 38% ni, mustaqil o'yin faoliyati kamida 24% ni, sog'lom turmush tarzini shakllantirish (sanitariya-gigiyena ko'nikmalari) kamida 20% ni, ota-onalarni bolalar rivoji taraqqiyoti to'g'risida xabardor qilish kamida 3% ni tashkil etishi zarur.

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida kun tartibini tuzishda ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini ta'minlash uchun bir qator muhim jihatlarga rioya etish lozim:

1. Kun tartibini tuzishda me'yoriy-huquqiy hujjatlarga muvofiqlik ta'minlanishiga e'tibor berish lozim.
2. Kun tartibini rejalashtirishda pedagogik, psixologik, fiziologik va gigiyenik yondashuvlarni uyg'un qo'llash orqali bolalarning yosh hamda individual xususiyatlarini inobatga olish muhim ahamiyat kasb etadi.
3. Tarbiyalanuvchilarning kunlik faoliyatini mazmunli tashkil etishda o'yin, ta'limiy mashg'ulot, sayr, dam olish va mustaqil faoliyat turlarining almashinuvini hamda xilma-xilligini ta'minlash zarur.
4. Kun tartibining ilmiy asosda tashkil etilishi bolalarning sog'lig'ini muhofaza qilish, xavfsizligini ta'minlash hamda ularning har tomonlama rivojlanishi uchun qulay pedagogik sharoitlarni yaratishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Sh.M. Mirziyoyev “Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi” - Toshkent, “O‘zbekiston” 2022. 416 -bet
2. O‘zbekiston Respublikasining “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida” gi Qonuni. O‘RQ-595-son. 2019-yil 16-dekabr. <https://lex.uz/docs/-4646908>
3. Grosheva I.V., Mirziyoyeva Sh.Sh., Evstafyeva L.G., Maxmudova D.T., Nabixanova Sh.B., Pak S.V., Nazarova V.A., Isxakova M.R., Abdunazarova N.F. “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi (takomillashtirilgan ikkinchi nashr), T. 2022-yil
4. Лобанова, Е. А. Дошкольная педагогика [Текст] : учебнометодическое пособие / Е. А. Лобанова. – Балашов : Николаев, 2005. – 76 с.
5. Лубовский, В. И. Специальная психология [Текст] : учебное пособие для студентов высш. пед. учебн. завед / В. И. Лубовский. – М. : Академия, 2003. – 464 с.